

Date: 17th June-2025

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY-HUQUQIY
ME’YORLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY
ASOSLARI**

G.M.Ergasheva

«International School of Finance Technology and Science» instituti "Psixologiya va pedagogika" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola Mustaqillik yillarida tom ma’noda uzlusiz ta’lim mazmuni tubdan yangilandi. Yangilangan ta’lim mazmunida o‘zgarayotgan jamiyat, global axborotlashuv jarayonining mohiyati aks etishiga, shuningdek, shaxs kamolotini ta’minalash borasida yuzaga kelgan ijtimoiy zaruriyatning inobatga olinishiga e’tibor qaratildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilmoqda, Mamlakatimiz Prezidentining Farmoniga binoan xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlanganligi haqida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: Mustaqillik Innovatsiya, kompetensiya, tizim,xalqaro tadqiqot, intellektual, kitobxonlik, boshlang‘ich sinf, loyiha, hamkor, so‘rovnoma, axborot resurslari, mustaqil ta`lim, uzlusiz ta`lim, induktiv, deduktiv, pedagogik texnologiya, muammoli vaziyat, ilg‘or tajriba

Abstract: This article is about the development of the education system, the innovative processes carried out in our country and the international study of PIRLS, the work carried out in the system of primary education in their implementation. Creating modern methodological support for the design of the creative educational process through the development of innovative activities, increasing the competitiveness of students in the world on the basis of innovative approaches to education, developing their skills in the field of innovative activities, as well as social The issues of enhancing the role are being studied as one of the current directions.

Key words: Innovation, Competence, System, International Research, Intellectual, Reading, Elementary, Project, Partner, Survey, Information Resources, Independent Education, Continuing Education, Inductive, deductive, pedagogical technology, problem situation, advanced experience

Аннотация: В данной статье речь идет о развитии системы образования, инновационных процессах, проводимых в нашей стране и международном исследовании, работе, проводимой в системе начального образования по их внедрению.

Ключевые слова: Инновация, Компетенция, Система, Международное исследование, Интеллектуальное, Чтение, Элементарное, Проектное, Партнерское,

Respublikamiz ta’lim tizimida kompetentsiyaviy yondashuvni qaror toptirish hamda “2030 yilga kelib “Xalqaro miqyosda o‘quvchilarini baholash” dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish” xalq ta’limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Uzluksiz ta’lim tizimining poydevori bo‘lgan boshlang‘ich ta’limda innovatsiya jarayonini amalga oshirishda xalqaro tajribalarni ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi.

Uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida bo‘lgani kabi boshlang‘ich ta’limning ham huquqiy negizlari yaratildi. Bugungi kunda respublika miqyosida tashkil etilayotgan boshlang‘ich ta’limning umumiy mohiyati “Boshlang‘ich ta’lim Konsepsiyası”da belgilab berilgan tamoyillar asosida yo‘lga qo‘yilmoqda.

Mazkur metodologik hujjatga ko‘ra boshlang‘ich ta’lim quyidagi maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilishi lozim: bolalarning psixologik va fiziologik salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlash; barcha faoliyat turlari bo‘yicha bolalar tashabbusini uyg‘otish va qo‘llab-quvvatlash; muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarining shakllanishiga erishish; o‘ziga ijobiy baho berish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni qo‘llab-quvvatlash; o‘quv mustaqilligini shakllantirish (o‘qishga bo‘lgan xohish va ko‘nikma, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlar darajasini kengaytirib borish³.

Yuqorida qayd etilgan maqsadga erishishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy munosabatlar jarayoniga faol jalb etish, shaxslararo muloqotni samarali tashkil etishga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo‘lishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, maktabgacha tarbiya va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida bolalarni so‘z yuritilgan jarayonlar uchun taalluqli bo‘lgan ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirish, ularga qat’iy rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa muayyan ijtimoiy-huquqiy me’yorlar asosida tashkil etiladi. Ko‘p holatlarda ijtimoiy va huquqiy me’yorlar O‘quvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etish masalasini nazariy va metodik jihatdan ishlanganlik darajasi hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ishlash qobiliyatini shakllantirish samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy metodlar asosida mashg’ulotlarni tashkil etish, o‘quvchilarining mustaqil ishlashlariga imkon beruvchi moddiy-texnik bazani mustahkamlash chora tadbirlarini belgilash, asosida tartibga solinadigan munosabatlar jarayoni ishtirokchilarining madaniyatilik darajasini ham ifodalashga xizmat qiladi. Jamoa joylarida o‘zini tutish, kinoteatrлarga tashrif buyurish, umumiy ovqatlanish muassasalarida

³ Бошлангич таълим Концепцияси / Муаллифлар: Қ.А.Абдуллаева, Р.Ф.Сафарова, М.О.Очилов, К.Н.Назаров, Н.У.Бикбаева, М.А.Зайнитдинова // Boshlang‘ch ta’lim j. – Тошкент: 1998. 6-сон. – 12-18-бетлар

Date: 17th June-2025



maishiy xizmat turlari, jamoa transportidan foydalanish, shuningdek, yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish jarayonida shaxsning umumiyligi madaniyati namoyon bo‘ladi. Shu bois oila, maktabgacha tarbiya va umumiyligi o‘rta ta’lim muassasalarida bolalarni so‘z yuritilgan jarayonlar uchun taalluqli bo‘lgan ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirish, ularga qat’iy rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lishi kerak.

Muammoni yoritishda, eng avvalo, “madaniy xulq-atvor” tushunchasi qanday mohiyatga egaligini aniqlab olish lozim. Ushbu tushuncha anglanganidek, “madaniy” va “xulq-atvor” tushunchalarining o‘zaro birlashuvi asosida shakllangan. Manbalarda “madaniy” atamasi “madaniyat” tushunchasi negizida shakllangan. Shu sababli dastlab “madaniyat” tushunchasining mazmuni bilan tanishib olamiz.

Manbalarda “madaniyat” tushunchasiga shunday ta’riflar beriladi:

1. Lotincha “cultura” atamasidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi; mumtoz lotin tilida “madaniyat” tushunchasi “yerni parvarish qilish”, “yerga ishlov berish” ma’nosida qo‘llanilib kelingan... Keyinchalik “madaniyat” tushunchasi bilimdon, ma’rifatli, yuksak tarbiyalı insonlarni ta’riflashda ham ishlatila boshlanadi⁴.

2. Dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlar boyliklari va muayyan turmush tarzining umumiyligi bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar uchun umumiyligi axloq qoidalari tizimi; shaxs xulq-atvori, muomalasi va xatti-harakatlarining ma’lum ketma-ketlik asosida shakllangan tizimi; jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy hayotida qo‘lga kiritilgan yutuqlar majmui; inson faoliyatining mahsuli, natijasi⁵

Arabcha “madiniyat” (Madina shahrida VII ayerdan boshlab targ‘ib etila boshlagan yangi dunyoqarash tarafдорлари va ular izdoshlarining qarashlari, nuqtayi nazarlari va amaliy xatti-harakatlari majmui) so‘zidan olingan bo‘lib, kishilarning tabiatni, borliqni o‘zlashtirish va o‘zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma’naviy boyliklar, ularni qayta tiklash hamda rivojlanish yo‘llari, uslublari majmui; inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko‘rsatkichi⁶.

Insonning ijodiy kuchi aks etadigan fikriy, ma’naviy yoki badiiy faoliyat mahsuli. Tushunchaning mohiyatini quyidagi uch talqinda ifodalash mumkin:

1) moddiy va ma’naviy qarashlar mohiyati;

2)bir qator bilimlar sohasi: tafakkur, mehnat, nutq, xulq-atvor va boshqalarning rivojlanish bosqichlari;

3)inson mohiyatini ifodalovchi ijtimoiy va mental rivojlanish darajasi⁷

3. Intellektual, ma’naviy va estetik taraqqiyotning umumiyligi jarayoni; huquq, tartib, axloqiy talab va boshqalarga asoslangan jamiyat holati (shu jihatiga ko‘ra “madaniyat”

⁴ Фалсафа. Кискача изоҳли лугат / Муаллифлар: М.Н.Абдуллаев ва бошк. Масъул мухаррир: А.Жалолов. – Тошкент: “Шарқ” НМАК Бош таҳрири, 2004. – 193-бет.

⁵ Педагогика фанидан изоҳли лугат/Муаллифлар: Ж.Ҳасанбоев ва бошк. М.Х.Тоҳтаходжаева нинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: “Fan va texnologiyalar”нашириёт, 2009.250-251бет

⁶ Mustaqillik. Izohli ilmiy-omnabop lug‘at / Mualliflar: M.Abdullayev va boshq. R.Ro‘ziyev va Q.Xonazzarov umumiyligi tahririda. To‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: “Sharq” NMAK Bosh tahriri, 2006. – 171-172-betlar.

⁷ Большая психологическая энциклопедия / Авторский коллектив: А.Б.Альмуханова и др. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 197.

Date: 17th June-2025



so‘zi “sivilizatsiya” atamasiga mos keladi); qandaydir jamiyat, kishilar guruhi yoki tarixiy davrning mavjudligi yoki turmush tarziga xos belgilarning ifodalaniishi; intellektual, yanada aniqrog‘i, badiiy faoliyat (musiqa, adabiyot, rassomlik, teatr, kino va hokazolar)ning shakl va u yordamida yaratilgan boyliklar.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan anglanadiki, “madaniyat” tushunchasining shakllanishi bevosita insoniyat tarixi taraqqiyotining muayyan davri bilan bog‘liq. Ovchilik va terib-termachlab kun ko‘rgan insoniyat tomonidan yerga ishlov berish, ya’ni dehqonchilik sirlarining o‘rganilishi ana shu tushuncha bilan ifodalana boshlagan.

Dehqonchilikning paydo bo‘lishi mo‘l-ko‘l oziq-ovqat manbalarini izlaydigan odamlar guruhining o‘troq hayotga moslashishini ta’mirladi. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va metodikasi o‘rganish jarayonida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘quvchining o‘z bilimini mustaqil oshirish faoliyatini aniq bir maqsadga yo’naltirishi lozim, degan xulosaga kelindi. Tadqiqotda maqsadga erishishi uchun amal qilishi kerak bo‘lgan shartlar belgilab berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldaggi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 5111700 – Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari. Toshkent. 2018.08.25. 40 b. (3 b.)
- 3.Davletshin M.G. Boshlang‘ich ta’limning psixologik omillari // Xalq ta’limi tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muamolari. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU,1996. -132-134b.
- 4.X.K.Muxammadiyeva, FR Ismatullayeva. ”BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DIDAKTIK JARAYONDA BOLANING RIVOJLANISHINI TA’MINLOVCHI TEXNOLOGIYALARНИ TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK TAHLILI”. 2022. Jurnal. Central Asian Research Journal for. Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2(2). 77-82. OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY». In the article is lightened the place and importance of didactic game educational technologies implementation in teaching of nature studies in the primary classes and its methodics in the teaching process.
5. Muhammadieva, K. (2020, June). The Idea “Personal Interests and the Priority of Education” in the Education as One of the Key Factors in Reforming School Education for Upbringing Perfect Individual. In Proceedings of International Multidisciplinary Scientific-Remote Online Conference on Innovative Solutions and Advanced Experiments (p. 22).
6. Абдуллаева, Ш. А., & Мухаммадиева, Х. К. (2016). Девиант хулқли илк ўспирин ёшидагиларни ижтимоийлаштириш ва профилактика ишларини олиб бориш. Современное образование (Узбекистан), (11), 48-53.

Date: 17th June-2025

7. Мухаммадиева, Х. К. (2014). Начальные сведения о развитии арифметики в трудах учёных математиков Востока. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3-2), 230-231.
8. Tuxtayevna, H. M., Mahkambayevna, E. G. Z., & Karamatovna, M. X. Methodological bases of development of socially active competencies of future primary school teachers in students and improvement of its methodology. International Journal of Health Sciences, (II), 10646-10654.
9. Эргашева, Г. М., Мухаммадиева, Х. К., & Артиқбаева, Н. Н. (2021). Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. Science and Education, 2(5), 578-582.

